

O'GAY ONA

(Roman)

Quyoshni bahorning boshi va kuzning adog'ida har qachongidan ko'ra qattiqroq, ko'proq suyushimizni ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak. Odamlar ilk bahor kuyoshini askarlikdan qaytgan o'g'lini yoki g'urbatga uzatilgan, ya'ni uzoqqa kelin bo'lib tushgan qizini kutib olgan otaona kabi qarshilaydilar. Kuzgi quyosh esa bamisoli bayram ta'tilida kelgan mehmon — loaqal yana bir kunga qolishi istalgan suyukli farzand... U bulutlar bag'ridan boqishi bilan bog'chalarga, supalarga, ayvonlarga, derazalar tubiga ko'rpachalar solinadi, suhbatlar kurilib, tikish-bichish singari qo'l yumushiariga kirishiladi.

Aprelning boshlarida, ikki qavvatli uy derazasi oldida o'tirib ham ip yumaloqlagan, hamda to'r parda uzra tushayotgan oqshomni kuzatayotgan ikki ayol aslida ko'pdan orziqib kutganlari — quyosh nurlari bois shu yerda o'tirardilar.

Tashqarida bolalar to'p o'ynamoqda. O'yinda yengilmaslik uchunmi, yoki hali isib ulgurmagan bahor havosida junjikmaslik uchunmi o'rtadagi to'p ortidan yugurishmoqdalar. Devor tubida esa ikki bolakay ularni tomosha qilib turishibdi. Biri sovqotganidan ko'liarini qo'ltiqlariga suqib olgan, qarovsizligi ko'rinishidanoq bilinib turgan olti yoshiardagi zaifgina o'g'il bola. Ikkinchisi go'zal liboslar kiyg'izilgan, toza qiyofali, uch yoshlarga kirarkirmas qizaloq. Tanimaganlar kattasini kichigining uyida xizmat qiladigan ayolning o'g'li deb o'ylashiari mumkin va shunday gumon qilishga haqlidirlar. Chunki, bunday taxmin qilib, hukm chiqarishga istalgancha alomatlar bor, ammo boshqacha o'ylashga asos bo'ladigan dalil mavjud emas.

Aslida bu ikki bola — qarindoshlar. Qarindoshliklari ikki holatda aks etadi: biri shu onda yonmayon turishiari, ikkinchisi bir uyda yotib turishlari. Ularning shu ikkisidan boshqa barcha narsalari farqlidir. Yebichishlari, kiyinishlari va ularga qilinadigan muomala qarindosh emasliklariga dalolat bo'la oladi. Birini «bir donam, yagonam, dilporam, dilbandim» deb suyishsa, ikkinchisini «yo'qol, basharang qursin» deya quvishsa, biriga har soat jonim, ko'ngling ne tusaydi» deb murojaat etilsayu, boshqasi ochqaganini aytsa, «ochqamay o'l, zahar ye, zaqqum yut» deb javob eshitsa, birini bag'riga bosarkan, boshqasini ko'krigidan itarsa, albatta, bu hodisalar, ularning qarindosh ekaniga dalil sanalmaydi,

Olti yoshlardagi o'g'il bola bundan uch yil avval — uch yoshlarida yetim qolib, o'gay ona ko'lida shu holga tushdi: bir bola ko'tara olishi mushkul bo'lgan qahru qiyinchiliklarni, hayot achchiqliklarini totdi, tayoq yedi. Ko'rgankechirganlari ichida tamoman unutgani — ona mehri, ona shafqati... Uning uchun ana shu uch yil uch asr qadar uzoq kechdi. Shu uch yil ichida loaqal biror marta tasodifan bo'lsaham «jon bolam» degan so'zni, afsuski, eshitmadi. Uning quloqlari bunday yaxshi so'zlarga tashna, qalbi esa zor bo'ldi. Bu bolaning vazifasi kichigiga qarash, uni ovuntirish, o'ynatish, beshigini tebratish va Sanihaxonim ko'rsatgan ishlarni bajaripvdan iborat.

Hozir bu ikki qarindosh to'p o'ynayotganlarni tomosha qilishmoqda. To'g'rirog'i, kattasi tomosha qilayotgan kichigiga ko'zquloq. O'yinni ro'paradan ko'rish qulay tuyuldi. Singlisini qarshi tarafga ohista yetaklay boshiadi. Ko'zi bolalar o'ynayotgan to'pda, aksiga olib to'p singlisiga kelib teshshi mumkin. U faqat shuning uchun diqqatini to'pga qaratgan, o'yinni esa tomosha qilmoqchi emas. Uzi o'ynamagach, tomoshadan ne foyda? Bu ehtiyot singlisini yaxshi ko'rgani uchunmi? Yo'q. Chunki biri har jihatdan sevgiga, ikkinchisi nafratga duchor bo'lgan qarindoshiarning bir-birini yaxshi ko'rishi daryoning tepaga oqishiday gap. Unda bu harakatning sababi nimada? Bu bola o'zi yaxshi

ko'rmagan qarindoshini nechun bu qadar jiddu jaqd bilan qo'riqlaydi? Javob oddiy: kaltak yeyishdan qo'rqish... Ha, shu qo'rkuv bo'lmasa, tayoqemasaedi... Boy bolalari yegan shokoladdan ko'proq tayoqlar... o'rniga mehr-shafqat, muruvvat ko'rsa edi, balki qarindoshini bundan ko'proq avaylardi. Joni achib, yaxshi ko'rib, o'zi istab qarardi. Shafqat va marhamat yulduzlar qadar uzoq ekan, u o'ziga yuklangan yumushiarni ko'ngildan, mehr bilan ado etolmas edi.

Yo'l o'rtasiga kelganda qizaloqning oyog'i qayrilib, yiqilib tushdi. Bola uni darhol turg'azdiyu, faryodini to'xtatolmadi. U qizaloqni kuchib chetga yetakladi, kiyimlarini qoqa boshiadi. Qizcha yig'idan tinmasdi. Qarshi tomondan ochilgan eshikdan bir ayolning boshi ko'rindi. Atrofga alangladi, bolalarni ko'rdi. Yo'lda erkak yo'qilgini bllgach, tezroq yurdi:

— Razil, yana bolani yig'latding, hozir senga ko'rsatib qo'yaman!

Yuqoridan ochilgan derazadan yosh qiz ovoz berdi:

— Sanixahola, Ismoilning aybi yo'q. Bolao'zi yiqildi. O'z ko'zim bilan ko'rdim.

Sanihaxonim, uning bu aralashuvidan mamnun emasllgini ta'kidlagan ohangda javob berdi:

— Yaxshi qarasa yiqllarmidi, singlim? Ko'r bo'lgur, hech qaramaydi go'dakka.

So'ng bolalarga o'girildi. Yuqorqdagi qiz:

— Alloh haqqi, u aybdor emas! — deya bakirdi. Lekin Sanihaxonnm quloq solmadi, kattasini birikki shapaloqlagach, kichigini quchog'iga oldi:

— Kel qo'zichog'im, yagonam! So'ng Ismoilga o'girildi: Uyaltirma, ikki tarsaki nima degan gap? Naq oyog'imning ostigaolib tepkilardimku.... —deya o'dag'aylab, bolasini yetaklab uyi tomonga yo'l oldi.

Ismoilning nohaq jazolanishi o'ynayotgan bolalarga tekin tomosha bo'ldi. Ikki daqiqa davom etgan bu shafqatsiz voqea ularni tinchiantirdi, hatto dam oldilar.

Ismoil yig'lar ekan, ular yana o'yinlariga berilib ketdilar. Bu orada yon tomondagi eshik ochilib, haligi baqirgan qiz chiqdi va Ismoilni chaqirdi:

— Ismoil! Ismoil!

Ismoil qayrilib qaradi.

— Buyoqqa kel!

Bordi. Qiz uni ichkariga taklif etarkan:

— Ol, mana bularni, ye! Mana bunga esa ko'ngling istagan narsani sotib ol, —deya qo'lidagi qandlarni unga uzatdi. Boshqa ko'lida esa ellik qurush bor edi.

— Kerakmas, Fotima opa.

— Olmasang xafa bo'laman, opa demaysan.

Ismoil hiqiliashini bosolmadi. «Bular nimaga ham yarardi, hech qanday foydasi yo'q», deganday oldi. Cho'ntagiga soldi.

— Kel yuzingni yaxshilab yuv, Ismoil, —deb Fotima zinada turgan suraxi (grafin)ga uzaldi, Ismoil hiqqiliab:

— Opa, o'zim yuvaman, ovora bo'lmang.

— Men kuyib tursam, yaxshiroq yuvasan. Quloqsiz bo'lma! Ismoil yuzini yuvdi. Fotima sochiq keltirib bolaning yuzini artdi va o'pib ko'ydi.

— Bir narsa kerak bo'lsa, yonimga kel, maylimi, Ismoil.

Ismoil uning ko'zlariga qaradi. Ezilib qaradi. Ko'zlari yana yoshlandi.

— Mening ham sizday opam bo'lsaydi?!—deb cho'ntagidan chiqargan kir ro'molchani ko'zlariga olib bordi.

— Men sening opang emasmanmi, Ismoil?! Doim yonimga kelib tur.

— Qanday kelaman? Bu yerga kirganimni ko'rsa, o'ldiradi meni.

Tashqariga yo'nalib, o'z eshiklariga bir qarab qo'yidida, devor tagiga iyagi bilan qo'llariga tayangancha cho'nqayib o'tirdi va yig'lay boshiadi.

Sanihaxonim Ismoil yegan tayoqlar jannatdan chiqqan deydi. Orasira shunday deyishdan Ismoilni urib zavqlangani kabi zavq oladi. Jannatdan chiqqan narsa faqat tayoqmi? Yoxud tayoqning jahannamdan chiqqan turi yo'qmi? Modomiki, jannatdan chiqqan ekan, nechun Salma bilan birga totmaydi bu tayoqni?! Ismoil kichik boshi bilan bularni tushunganday bo'lar, yig'lar, faqat tuzukroq, to'g'riroq javob topolmasdi. Topgandan ne foyda? Tayoq jannatdan chiqqanmi yoki do'zaxdanmi, baribir Ismollning joniga azob beraveradiku, Ismoil shunday xayollar bilan band bir paytda yuqorida ikki ayol o'rtasida shunday suhbat kechardi:

— Pastda nima qlib yuruvding, Fotima?

— Ismoilning ko'nglini ko'tardim, ona.

— Birovning bolasi bo'lsa, senga nima, qizim? Onasini bilasanku, dimog'idan qurt yog'adi. Nega aralashasan demaydimi?..

— Desin, ona, deb ko'rsin?! Zulm emasmi go'dakkinaga?! Onasi bo'lmasa, shuncha ezish kerakmi? Aslida onasizligini bildirmasligi zarurku... buning o'rniga bunday ish tutsa, jon chidaydimi?

— Bu insonlik emas, ammo na chora, nima ham qilardng?! Kimga dod deysan, kimga tushuntirasan, qizim?! Hamma yerda

shunday. Qaysi o'gay ona yetim bolalarni bag'riga ollbdi?! O'z bolasiday ko'ribdi? O'gaylik qilmagan o'gay ona bormi? Qani bunday fazilatlar, qizim?

— Menga qolsa, bu bolaga zulm qilinmasa deyman. O'z dardi o'ziga yetib ortadi. Ona mehriga muhtoj, ko'ngli vayron bolaga qanday muomala qilishmoqda, bilmadim. Qanday inson bunday muomala qiladi, qaysi axloq kitobida bunga o'rin bor?! Qay vijdon bunga chidaydi, bilmadim, ona, bilmadim..!

Shu kecha Fotima, uxlay olmadi. Ko'zlarini yumishi bilan Ismollni ko'rar, u yig'lar, to'xtovsiz yig'lardi. Bu bolaning yolg'iz aybi — onasining o'lgani, yetimligi. Aslida, unga bu yoshda parvarish, ona mehriga muhtoj g'amll yuragiga, mahzun ko'ngliga malham zarur edi. Lekin qayda malham?! Qani, u mehribon inson?! Insoniylik amriga kuloq tutgan bormi? Muruvvat, marhamat yo'lidan yurguvchi qani? Qani, o'z diniy burchini o'ylaganlar?! Qaerda?! Axloqiy vazifasini o'taydiganlar qayda, qayokda, qani?!

Agar Janobi Payg'ambarimiz tug'ilmasdan yetim qolganlari eslansa, har yetimga qilingan yaxshilik Alloh huzurida ul zotga qilingan yaxshilik singari qabul qilinishi o'ylansa, shunday hodisalar sodir bo'larmidi?! Aslida katta odam ham ko'tarolmaydigan yuk bechora, yoshgina go'dak yelkasiga qo'yilgan edi. Onasi vafot etgandan buyon hayoti vayron, ko'ngll chilparchin, dunyodan bezgan. Bezdiruvchi tayoqlar, haqoratlar paydarpay yog'ilib, peshma-pesh kelib turar, faqat yaxshi so'z, mexrmuruvvat, marhamat ko'li tasodifan bo'lsa-da, hali uning darvozasini, ko'ngll eshigini ochmagandi... Ha, jajjigana Ismoil bu holga bardosh berar, istaristamas bu og'irliklarni ko'tarardi. Ko'tarmasdan nima ham qilardi?! Arzimas xatosi uchun ham kaltaklaydigan o'gay onauni parvarish qilarmidi?! Unga yoki otasiga bularni aytib, dardiga darmon toparmidi?! Ismoiluchun bu ishlar g'oyat mushkul edi. Otasi yonida ham o'gay onasidan ko'p bor haqorat eshitgan, kaltak yegan, ammo otasi uning yonini olmagan. Aqalli biron marta o'gay onaning qo'lidan tutmagan. Yo'qsa, shunday bo'larmidi? Loqaq oqshom uyga qaytgan otasini xursandlik bilan qarshilab, quchog'iga otilmasmidi?! Qachon bunga jur'at qila olgan? Fotima bunday holatga shohid bo'lmagan. Ammo oqshom uyga qaytgan ota qarshisida boshi egik, o'ylay-o'ylay uyga kirib ketgan maxzun Ismoilni ko'p ko'rgan. Balki bir oz keyin bu kamchiliklar botar vau otasining ko'lldan tutar... Balki har kim o'z aybi uchun o'zi jazolanar... Balki qarindoshi qilgan xatosi uchun Ismoll jazolanmaydigan

kunlar kelar...

Ikki haftacha avval uning ko'nglini ko'tarib:

— Ismoil, uning qilmishlarini otangga aytmaysanmi? Meni ko'p uradi demaysanmi? — deyishi bilan Ismoilning boshi egllidi:

Otam meni yaxshi ko'rmaydiku... Kechasi tizzalariga o'tirmoqchi bo'lsam, onamga qaradi, qaradiyu, meni surib ko'ydi. U Salmani keltirdi:

— Kapkatta bolangni suymasdan mana buni erkalat! Otam ham uni erkalatdi.

Ismoil bularni aytib yig'ladi, Fotimani ham yig'latdi. To'shagida shularni o'ylab uxlayolmagan Fotima goh o'ngga, goh chapga ag'darilar, o'rtanar edi.

Ikki oy o'tdi. Bayram keldi. Odatga muvofiq bolalar eshikmaeshik yurib, ko'l o'pardilar.

Ismoilham bayram kuni otasining ko'llini o'pdi. Otasi ham uni bag'riga oldi, kuchoqladi, yuzlaridan o'pdi. Bayramda cho'ntagiga tushgan besho'n kurush va kiygan yangi liboslari o'z yo'llga, Ismoilni quvontirgan — ota quchog'lda besh daqiqa o'tirish, ota chehrasini ochiq ko'rib, shirin so'z eshitish edi. Hatto o'gay onasi uni suyib, quchoqlab o'pdi.

Bayram qanday go'zal, qanday totii! Har kun bayram bo'lsaydi, deb o'yladn. Avval buni do'stlariga anglatishni o'yladi. Otam meni suydi demoqchi bo'ldi. Keyin bu fikridan voz kechdi. Uydan chiqib to'g'ri Fotima opasining eshigiga yurdi. Nima uchun? Uni tushungan yolg'iz u bo'ldi, ko'zyoshini u sidirdi, har nedan ortik, muhtoj bo'lgani — shafqatni, mehrni undan ko'rdi. Qay vaqt kaltaklansa, Fotima opa hamdard bo'ldi. Ko'ngli tasalli topdi. Shuning

Uchun Ismoil eng avval uning uyiga yo'l oldi.

Eshik Ismoil qo'l uzatmasdan avval ochildi, ochiq chehra Fotima opa uni taklif etdi. Kellshini derazadan ko'rdi.

— Opa... — deya unga talpindi.

— Kirmaysanmi? Qochadiganga o'xshab turibsan. Shundaymi? Dunyoda seni yolg'iz tashiab ko'ymayman.

Ismonningo'zi ham kirishni, besh daqiqa opasining yonida o'tirishni judayam istardi. Ammo uning vayron ko'nglidan, tushunarmikan, istamay qolmasmikan dega hadiklar o'tdi. U kechirayotgan hayot — mehrga muhtojli hech kim tomonidan sevilmaslik hissini ko'ngliga singirib yuborgan bo'lib, Fotima opasi yonida o'tirish unga yuk, malol kelishi mumkinligini o'yiamoqda edi. Yuqori chiqdi. Qo'liar o'pildi, duolar qllindi,

— Bugun otam meni suydi, opa. Bag'riga olib erkaladi

— Bu — tabiiy, Ismoil, u — sening otang. Albatta shunday qiladi.

— Har kun bunday emasku...

— Endi shunday bo'ladi, inshooloh.

— Ismoil uzatilgan qandlardan bir dona oldi.

— Yana ol, Ismoil

— Yetadi, opa. Bo'ladi. Rahmat.

— Yo'q, bo'lmaydi, mana buni men uchun ol. Meni yaxshi ko'rsang, ol.

Ismoil yana bir dona oldi. U nimanidir aytmoqchi edi. Boshini sal egdi:

— Opa, sizga bir gap aytaymi?

— Ayt, Ismoil.

— Kechqurun otam meni mozorga olib bordi. Menga onamning qabrini ko'rsatdi. «Qara, o'g'lim, bu yerda onang yotibdi. O'qi!» — dedi.

— O'qidingmi?!

— «Fotiha» o'qidim, opa, «Alham»ni. Ammo, rosa yig'ladim.

U Fotimaga bu gaplarni ayta turib ko'zlariga kelgan yosh tomchilarini to'xtatolmadi. Ketmoqchi bo'lib, o'rnidan turdi. Fotima darhol qo'llaridan tutdi.

— Qayoqqa borasan, Ismoil? Mening bilan shunchagina o'tirasanmi? Odam opasining

yonidan ham shuncha tez ketadimi?

Ismoil Fotima opasining ko'nglini ko'tarish uchun yana qaytib o'tirdi. Sal fursat o'tgach:

— Endi ketay, opa, — deb qo'zg'aldi.

— Mayli, bor. Ammo yana kel, kutaman.

Ismoil chiqdi. So'ng qayoqqa ketganini hech kim bilmaydi. U ancha vaqt mahallada ko'rinmadi.

Agar go'rkov o'sha kuni joyida bo'lganida, olti etti yoshiardagi bir bolaning eshikdan kirib, shoshapisha qabrison oralab ketganini ko'rgan bo'lardi. Bu bola o'sha tunda ziyorat qilgani kelib, onasining qabrini bilib olgan Ismoil edi. Undan boshqa bola bunga qodir emasdi. U dunyoda shu bir uyum tuprokdagidek aftni hech yerdan, hatto otasidan ham topolmagani va shuning uchunmikan otasi bilan o'zi o'rtasida begonalik paydo bo'lganidan bu yerga keldi. Chopib keldi. Har kim ko'ngilxushlik uchun shoshgan bayram ayyomida to'yib-to'yib yig'lamoq, yillar ko'ngliga cho'ktirgan dardlarining bir qismini yengllatmoq uchun kelgandi Ismoil...

Bayram o'n besh kecha-kunduz bo'ldi. O'gay onaning Ismoil to'g'risida bergan ma'lumoti otani o'yiantirib ko'ydi. Uning aytishicha, Ismoil teztez qayoqiargadir ketar, yarim soat, bir soatgacha hech kim uni ko'rmasmish. O'zidan so'ralsa:

— O'ynadim, — deb ko'ya qolar, boshqa javob olinmasdi.

Yangi xotinning ra'yiga qarab bugungacha o'z o'g'liga o'gay ota qatorida bo'lmoqdan boshqa narsa ko'lidan kelmagan otanl o'y bosdi. Bola qayoqqa ketishi mumkin?

Boshqa mahailalarga o'ynagani borib, u yerda bolalardan tayoq yeb qaytgani esiga tushdi. Ezildi. Ismoil o'zi uchun muglaqo xuzursiz bu uydan uzoqlashishi tabiiy emasmi?! Ikkinchi marotaba uylanganidan keyin ota sifatida o'g'li uchun hech narsa qilmadi. Ota buni ilk bora bugun xis etdi va o'z qilmishiarining kechirilmas gunoh ekanligini anglaganday bo'ldi. Uni ichidan qaynab chiqayotgan bir nido ezardi: vijdonli bir o'gay ota Ismoilga sendan ko'ra yaxshiroq muomala qilar, mehrliroq bo'lardi. Turdi. Tashqariga chikdi. Ko'zyoshiarini sidirmoqdan boshqa bir chora topolmayotgandi.

Ikkn kun o'tdi. Havo ancha ilib qoldi. Do'konlarning eshiklari ochildi. Ko'kraklarni to'ldirib-to'ldirib bahor xavosini oladigan zavqli damlar boshiandi. Bir do'stinikida mehmondorchilikda o'tirib, choyning oxirgi yutumini ho'plarkan ko'zlari birdan katta-katta ochilib ketdi. U ko'chada yugurib ketayotgan Ismoilni ko'rib qoldi. Mezbon bilan xayr xo'shiashishga ham sabri chidamasdan Ismoilning ortidan tushdi. Ismoil orqasiga qaray demasdi. Besh daqiqalardan so'ng qabrison eshigidan avval olti yoshlardagi bola, undan keyin bir kishi kirdilar. Uning qaydaligi endi ma'lum edi. Avval mozorchiga uchradi. Mozorchi bu bola bir ikki haftadirki, qabristonga serqatnov bo'lib qolganini, shoshapisha, hatto yugurib kelishi va birozdan so'ng qaytishini aytdi.

Mozor boshlarida hech kim ko'zga tashlanmasdi. Ota ajabiangan ko'yi Ismoilni axtara boshladi. O'g'li hadeb ko'zga tashlanavermagach, Fotiha o'qib ketishuchun marhuma xotininining qabri tomon yo'naldi. O'n odimcha masofa qolgan ediyamki, mozorning narigi tarafidagi g'alati butaga ko'zi tushdi. Butaga yaqinlashib, shoxni ko'tarish uchun egilishi bilan hayratdan dong qotdi. Ko'zlari kosasidan chiqkuday bo'lib, bir hamlada buta shoxini chetga tortdi. Buta tagida Ismoilning zaif vujudi ko'rindi. Chuqurligi bir qarichcha keladigan, yotganda Ismoilning bo'yiga mos bir joy qazilgan. Ismoil shu chuqurda ozi mozorga tegar darajada yotibdi, yuziga bo'z parchasi yopilgan. Ustidan buta olinishini sezar-sezmas Ismoil yotgan joyidan irg'ib turdi. Qarshisida otasini so'rdi. Sakrab turarkan birinchi qilgan ishi yuzidagi bo'z tarchasini cho'ntagiga solmoq bo'ldi. Har ikkisi kutilmagan bu uchrashuv hayajoni ichra qo'rquv va hayrat aralash bir-biriga tikilib qoldilar.

Ismoil oyoq tovushlarini eshitgan, biroq ziyoratchi uni sezmasdan o'tib ketishiga ishonib,

jim yotgan edi. Ko'rdiki qarshisida otasi turibdi. Shu onda tuproqqa aylangan onasi va yetimlik jamiki ozorlarini chekishiga sabab bo'lgan otasi orasida edi u. Qochish kerakmikan? Nima qilsa ekan? Ismoil hozir bu savollarga javob bera oladigan holatda emasdi.

— Bu yerda nima qilyapsan, o'g'lim?

— Onamning kuchog'ida yotibman.

— Shunday ham bo'ladimi, bolam? Onango'lganiga necha shii bo'ldi?! Axir u tuproqqa aylanib ketganku

— Mayli. Men unng tuprog'ini ham yaxshi ko'raman. Endi bu yer mening uyim, — dedi u qo'li bilan qazilgan koyga ishora qilib.

Ota boshqa chidayolmadi, Onasining tuprog'idan boshqa o'kinadigan yeri va kimsasi qolmaganini anglagan bolasini bag'riga bosib xo'ng-ho'ng yig'lay boshiadi.

Bir muddat shunday yig'lagach:

— Yur, o'g'lim, ketamiz, — deb ko'lidan tutdi va u yerdan chiqdilar. O'n-o'n besh qadam tashlagach bir nima esiga tushib so'radi:

— Yuzingta yopib olganing nimaydi, o'g'lim?

— Ismoil kissasidan bo'z parchasini chiqardi:

Onamning ko'ylagidan uzib oldim. Bunda uning hidi bor

Tush, Quyosh harorati kuchayganida qabristondan naqadar gunohkor va bemehrligini anglagan ota hamda uniig ota mehridan maxrum bo'lgani uchun ona xokini yuzga surtib, ona tuprog'iga bosh urushdan boshqa chorasi qolmagan tolesiz o'g'li chiqishmoqda.

Tunda, Ismoll uyquga ketgach, bu hodisalarni bir-bir anglatgan ota xotiniga murojaat qildi:

— Bir narsaga aqlim yetmayapti. Ismoil onasi o'lganda uni taniydigan hoida emasdi. Uning ko'ylagi qayoqdan bildi?

Sanixaxonim javob berdi:

— Kecha uyni yig'ishtirayotganda eski kiyimlarni taxlayotib unga onasining ko'ylagini ko'rsatgandim. U olib uni ko'llga oldi, ko'zlari yoshiandi. Men ortiqcha ahamiyat bermasdan ko'ylakni uning ko'lidan ollb ko'ydim.

U taxmonni titkilab o'sha ko'ylakni topdi. Bu ko'ylakning naq ko'ksidan bir parcha qirqib olingan edi.

O'sha kundan e'tiboran Ismoilning uydagi ahvoll ozgina yengillashdi. Endi Ismoil ba'zida bir tizzasiga Salmani olgan otasining kuchog'ida o'tirish zavqlni totar bu hoidan Sanixaxonimning qovog'i ham avvalgaday uyulmasdi.

Endi Ismoil ham ochiq chehra bilan yura boshiadi. Availari oqshomda uyga qaytgan otasini boshi ham holda kutib olgan Ismoil endi otasi kellshi bilan yugurib boradigan va uning ko'lidan ushiab uyga yonma-yon kiradigan bo'ldi. Uning hayotida ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar bo'lnanini bllgan ko'shnilarning ham vijdonlari endi xotirjam edi. Avvalo Fotima... Ota-o'g'll ko'l ushlab uyga kirisharkan, ba'zan uning ham ko'zlaridan qaynoq tomchilar mexr va shafqat to'la ko'ksiga enardi.

* * *

Fotima bu yil o'n to'qqizga qadam ko'ydi. Bu yoshga pok, vijdoni oldida uyalmaydigan bir holda kirdi. Qur'on o'qimoqni otasidan, namoz o'qimoqni ota-onasidan, tarbiya va odobni ular bilan birgalikda o'z vijdonidan o'rgandi. Har jixatdan ayol degan nomga munosib bo'ldi.

Otasidan yetarlicha diniy ma'lumot oldi. Alloh har narsani ko'rguvchi, eshitguvchi, bllguvchi ekanini, yaxshiyomon qilgan ishlari hususida uning huzurida bir kun xisob

berajagi, bu ishlarni chap va o'ng yelkasidagi ikki kotib farishta yozib borajagini bilisbi bilan ko'zlari yoshlandi. Shu kundan boshini o'radi, ko'pchilik orasida o'zini qanday odobli tutsa, yolg'iz qolganda ham shunga qattiq amal qildi.

Ayollar to'planishgach, bemalol ochiq-sochiq o'tiraveradilar. Hatto Fotima yaxshi taniydigan adabli, tarbiyali bir nechta xotinlar ham shunday ish tutishdi. Dugonalari, uni ham boshini ochib, ro'moinni yechib o'tirishga qistashardi. U qabul qilmasdi.

— Bu yerda hech kim yo'q-ku, Fotima, kim ko'rib o'tiribdi?! Buncha talabchan bo'lmasang?!

— Alioh ko'radi, — deb javob berardi Fotima.

— Xo'p, sen o'raganing bilan sochingni Alloh ko'rmaydimi? — deya e'tiroz etdi dugonasi.

— Tabiiyki, ko'radi.

— Unda nechun bu taassub, mutaassiblik?! Nimadan buncha saqlanasan, Fotima?!

— Istaymanki, Alloh meni uyalishimga sabab bo'lgan holatda ko'rmasin. O'zi amr etgan, rozi bo'ladigan qiyofada ko'rsin.

Hech qanday e'tirozga o'rin qolmadi. Fotima yodlangan qoidalarni shunchaki gapirmadi, balki shu qadar sammiy javob berdiki, ochilgan tizzalar va boshlar darhol yopildi, bu so'zlar vijdonlarga qadar yetdi, qalblar titratib yubordi. Shu kundan so'ng Fotimaga bunday taklif bilan murojaat qilishga hech kim botinmadi. Hatto uni ziyorat qilgani kellsagan dugonalari boshqa joylardagiday va avvalgiday emas, tartibli va nazokatli bo'lgan holda o'tiradigan bo'lдилar.

Bolalikdan xotirasida qolgan bir voqea bor: bir kun boqqa borishdi. Olti yoshga kirib-kirmagan Fotima bog'dan u yoq bu yoqqa yugurayotib bir olma topib oldi va «ona senga olma keltirdim» dedi sevinib, so'ng toklar orasiga kirib ketdi. Yon qo'shning bog'idan bir bosh chiroyli uzum ularning bog'lga osilib turardi. Endi uzaman deb turganida otasining ovozi darhol ko'l tortishga maj etdi:

— Fotima, uzma qizim! Bu uzum bizga harom!

Uning jajji shuurida uzum qora bo'lganligi uchun harom degan fikr qoldi. Oradan yillar o'tdi, lekin Fotima bir dona ham qora uzum yemadi. Uzumning qoraligi uchun emas, birovning moll bo'lgani uchun harom ekanini yillar o'tib bilgach ham oq va qora uzum ko'yilsa, uning ko'llari beixtiyor oqqa uzalaverardi...

Bu yil o'n to'qqizga kirayotgan Fotima kichikligidan shunday o'sdi. Qalbidagi Allohdan qo'rqish, odob va tarbiya hissi vijdonidagi iffat tuyg'usi, insoniy noztkliklar... Yoxud suhbatlari, uyalishiari, harakatlariyu muomalasi...Uni o'zidan katta-kichik, barcha ayollarga o'rnak qilib ko'rsatish mumkin. Chunki Fotima o'zini, so'zlari va harakatlarini nazorat qilishga qodir qiz bo'lib yetgandi.

Fotima bo'y yetgan qizlar kabi atrofdan so'rala boshiandi. So'raganlar orasida boy-badavlatlar, faqiru o'rtahollar bor. Bulardan har biri bir bahona bilan etilardi. Fotima turmushga chiqishi kerak bo'lgan olam dini butun bir musulmoy, pok, go'zal axloqli, insoniy fazilatlar bilan ziynatlangan inson bo'lishi kerak. Boy yoki faqir bo'lishi uning uchun aytarli ahamiyatga ega emas. Mahaliasida boy deb tanilgan va zamona zayli bilan faqirlashgan kishilar bor. Bir zamonlar kunlik ovqatini zo'rg'a topib, ertangi quni uchun ko'lida hech vaqo bo'lmagan, lekin serg'ayratligi tufayli boshqalarga yordam beradigan darajada boyib ketgan odamlarni ham biladi. Shu tufayli Fotima mol-mulk kabi bugun kelib, erta ketadigan narsalarga ahamiyat bermasdi.

Bir kuni uni ikki bolali beva erkakka so'rab kelishi. Xotini bir yil burun vafot etgan bu odamning bolalari parishon bir holda qolgandi. Buvisi, ya'ni marxum xotinning onasi bu parishonlikni biroz bo'lsada kamaytirish uchun ancha urindi, lekin o'zi ham xastalanib qoldi. Shundan so'ng Odilbek bolalarining axvolini biroz bo'lsada yaxshilash umidida ikkinchi bor uylanishga istar-istamas rozi bo'ldi.

Odilbek namozxon, xushfe'l, xushbichim, fayzli bir inon edi. U haqda eshitilgan qisqa ma'lumot — shu. Fotimaning onasi bunday turmushga rozi bo'lmaydiganga o'xshardi. Ikki yetimga qarash oson bo'ptimi?! Uni muamolar kamroq, har jihatdan to'kin oilaga uzatmoqchi edi. U to'g'rida qizi bilan maslahatlashdi:

— U odam yaxshilikka yaxshi emish, ammo ikki yetimn or, qizim, nima qilasan?

— Uiarga farzandimday qarayman, ona bo'lib tarbiyalayman.

Ona bo'lib qarash osonmi, qizim? Saniha nima qlidi? Ismoil yegan tayoqlarni ko'rmayapsanmi? Bola shuncha zulm ko'ryapti, Saniha shuncha gunoh orttiryapti.

Xo'sh, Sanihaxonim onalik qlidimi, buni istadimi, bunga tirishdimi? Kelganining uchinchi kuniyoq Ismoil uydan yig'lab chiqmaganmidi? Qachon Ismoil Salmaday go'zal, toza liboslar kiydi? Qachon Salma bilan teng ko'rildi? Salmaga qarashdan ortib, biror marta do'stlari blian o'ynadimi? Aminmanki, u uyda Salma Sanihaxonimning bolasi, Ismoil esa uning xizmatkoriday ko'riladi. Hatto xizmatkorga ham bunday muomala qilmaydilarku.

— Qizim, bir narsa menga ma'lumki, yetimning qahri qattiq bo'ladi. Qancha urinma, o'zingni ularga ona sifatida tan oldirolmaysan. Senga bir narsa aytaymi? Yetimg'esirsiz, qaynonasiz, bolasiz oilaga kelin bo'lishing kerak. Nega o'zingni zaxmatga urasan, el qilmaganni qilasan?

— Ho'sh, unda bu bolalar nima bo'ladi, ona? Bironta o'zini bilmaydigan kelib har xil zulmlar o'tkazsa, bechora bolalarning HOAI ne kechadi, ularning aybi nima, ona?

— Senga nima, Fotima? Birovning bolasi bo'lsa, o'ylagan narsangni qara. Qancha chidaysan, bir hafta, bir oy sabr qilding, xo'sh, oxiri nima bilan tugaydi? Bir kun kelib boshqacha o'ylab qolasan. Pushaymon bo'lasan, hayoting so'ngigacha ularning dardiga o'ralashib o'zini jabr qilasan, yo Sanixaga o'xshab, og'izlariga urib, tashqariga quvib, haydaysan. Bundan boshqa yo'l bormi?

— Bor, ona. Ularni o'z farzandimday o'stirib, savob olish bor. O'z bolasini parvarish qilish hayvonning ham qo'lidan keladi. Inson bir pog'ona ustun bo'lishi kerakmasmi? Insonning xayvovdan ustunligi g'arib yetimni bolasiday bag'riga bosa olishida emasmi? Zulmning har qanday turi ham yomon, ammo yetimga qilingam zulm, zolimni, ya'ni zulm qliguvchi insonni hayvondan pastroq tushirib ko'ysa kerak.

Bu suhbat Fotimaning istagi amalga oshishi bilan yaqunlandi. Qizini so'ratgan bu odamning yomon odam emasligini bilgan otasi ixtiyorni Fotimaga berdi. Yetimlarni parvarishlash Fotimaning qo'lidan keladi. Agar Fotima xoxlayotgan inson axloqiy buzuq, ichkiliboz, qimorboz, din dushmani bo'lsa, qizini unga bermaslik otaning burchi. Aksi bo'lsa, Fotimani o'z ixtiyoriga qo'yish kerak. Shu sababdan sovchilarga muvofiq va munosib javob berdi.

Bayramdan bir oylar keyin Ismoilning ahvolini ko'rganlar uning sekin-asta o'nglanib borayotgani haqida xulosa chiqarishlari mumkin edi. Ba'zan otasi uni bozorga olib borar, ba'zan Ismoil o'rtoqlari bilan o'ynardi. Uyda yana uni kaltaklashyaptimi, yo'qmi bilib bo'lmasdi. Faqat ilgariqiday tayoq yeyishlar nihoyasiga yetgan!

EDI. Buni birinchilardan bo'lib Fotima angladi. Aslida Fotimaning ikki yetimi bo'lgan kishiga turmushga ishiga sababham Ismoil edi. To'g'rirog'i, Ismoil chekkan iztiroblarning uning ko'nglida qoldirgan teran ta'siri edi bu. Ikki yetimning qo'nglini olish—ularni zolim ko'lga tushishdan kutqarish edi uning niyati. Yo'qsa, Fotimaday ham ruhiy, ham jismoniy go'zallik sohibasi, ishchan qizga uylanmoqchi bo'lganlar ko'p edi. Yana ko'plab topilardi ham. U uylangan odamga turmushga chiqarkan, uning marhum xotini xotiralariga bog'lanib qolishi mumkinligini bligani holda, bu go'daklarni qutqarish fikrida edi. Modomiki, bo'lg'usi er murosali inson ekan, muammo yo'q hisob. Har holda o'lgan bilan tirik bir emas. Endi uylangan xotini ham sevadi, hurmatlaydi. Buning ustiga, Fotima eri bo'ladigan odamga, birinchi xotinigga nisbatan xurmatni unutishini taklif etadigan, uni

esidan chiqarmagani uchun xafa bo'ladigan, tirg'aladigan qiz emas. O'zi bir vaqtlar kichikligidan boqib katta qilgan mushugi yo'qolganda uning xotirasini ko'nglidan chiqarib tashlayolmagan Fotima, ikki bolasini omonat qoldirgan bir insonni unutilib yuborishni tasavvuriga sig'dirolmasdi. Bu to'g'ridan-to'g'ri muruvvatsizlik bo'lardi.

O'zining u xonimni unuttiradigan nima bor? Balki u xotin ko'p ustun, saviyali, fazilatli bo'lgandir. Uni unutilib qoldirgan go'daklarni ham yoddan chiqarish demakdir. Holbuki, Fotima bu xonadonga shu go'daklarni deb kelmoqda edi, toki ular unutilmasin, iztirobda qolmasin.

* * *

Fotimaning ikki yetimi bor odamga tegishga rozi bo'lishidan qarindosh urug' behad hayron bo'lib qoldi. Ular bolani eplash mushkulligidan so'zlar, o'ylamasdan ish tutilayotganligini aytib, kuyinishardi. Yosh, kelishgan u odamning qusur va kamchiligi deyarli yo'q aksincha, u bir talay fazilatiarga ega. Qarindoshlarning ba'ilari do'stona achinishib, ozorlanishar, ba'zilari esa qaror qabul qilgan Fotimani aybiashar edi. Hall ham fikridan qaytish uchun kech emasligini, aksincha, bu eng to'g'ri yo'l ekanini aytishardi. Onasi kelganlarning dashnomlariga javoban:

— Qancha harakat qilmay kor qilmadi, tushuntirolmadim. Ne qilay, qo'limdan nimaham kelardi. Ana o'zingiz chaqirib gaplashinglar, —demoqdan boshqa chora topolmasdi. Ular Fotimaning o'zi bilan gaplashishdi:

— Fotima, seni yaxshi ko'rganimizdan kuyinamiz. Bo'lmasa, bizga nima? Ke, o'zingni qiynama. Xohiasat pochchang aralashadi. Kech bo'lmasdan oldini olaylik.

Fotimaning yuragi siqildi. Nega har kim aralashaveradi? Boradigan, yashaydigan va buni ko'ngil rizoligi bilan istagan uning o'zi-ku. Har hoida o'z zararini o'z ham ularchalik o'ylar va tushunardi.

— Hola, — dedi, — meni yaxshi ko'rganingiz uchun gapiryapsiz, ammo mening qarorim qat'iy. Mening maqsadim ikki go'dakka qarash hamda ularni iztirobdan, mashaqqatdan kutqarish. Men pushaymon qilmayman. Buning uchun behuda aziyat chekmang.

— Ishqillb pushaymon bo'lib qolmasang bo'lgani, Fotima!

— Parvardigorim meni uyaltirmas. Yomon ish qilmoqchi emasmanku!

So'z shu yer da to'xtadi.

* * *

To'yni oddiygina o'tkazish taklifi keldi. Fotimanin otasi bu taklifni ma'quliab qarshi oldi.

— Xotini yaqinda vafot etgan odam, dabdabaning bugun va umuman hojati yo'q, — dedilar.

Fotima ham bu taklifni o'rinli deb bildi. Hatto bundan Odilbekning tushungan bir inson ekani ko'rinardi. Hurmatli inson bo'lmasaydi, marhum xotining xotirasini xayoliga ham keltirmasdi.

* * *

Yillar bo'yi inson ko'li tegmagan, parvarishdan uzoq, begona o'tlardan ko'rinmas holga kelgan bog'cha bilan istalgan mahalia va hattoki shahar ayollari ahvoli o'rtasida katta o'xshashlik bor. Bu bog'chada yetishgan narsalarning ko'pi iste'molga yaroqli mahsulot bo'lib yetishishi qiyin. Bog'bon tarbiyasi bog'cha uchun begona edi. Shu sababdan har nihol, o'zicha — qanday yo'l topsa, shunday o'sib yotardi.

Mahalla ayoliari ham shunday. Kichik yoshdan quloqlari tarbiya uchun burilmagan, Faqat betakaliuf bir turmushning beparvo tarzi quloqlariga quyilib, qalblariga qadar o'rnashgan. Shu sababdan ular hislariga, orzulariga to'qri kelgan narsalarni o'zlari bilganicha, o'zlari xohlaganicha qoyillatib bajarishardi. Faqat aql va mantiq zaruratiga, axloq va fazilat amriga kelganda loqayd qolishiari ko'zga tashlanadi. O'tirib birovni g'lybat qillshda, chog'ishtirishda, chaqimchilikda, bahslashishda, urushishda barcha mahoratlarini ishga solib, o'rtaga chiqaradiganlar ko'p. Ammo o'zlarini bundan saqlaydigan ayollar ozdir.

Ayollarning hammasi shunday deyish insofdan bo'lmasa kerak. Ular orasida ham orzu-umidlari, maqsad va tuyg'ulari, faoliyatlarini Alloh rizosi uchun qiladigan, irodasini hislari qarshisiga qudratli bir qo'mondon kabi oladiganlar bor. Go'yo tasodifan yovvoyi o'tlar iskanjasida qolgan noyob bog' guli kabi. Ba'zan bu gul atrofni qichitqi o'tlar qoplaydi, chirmoviqlar o'raydi, tikanlar kurshaydi va gulni yoniga yaqinlashib bo'lmas holatga keltiradi. Lekin, baribir, uning xush bo'yi atrofga yoyilishidan, go'zal rangi yiroqlarga joziba taratishidan ko'z quvnaydi, dimog' chog' bo'ladi, jon xuzur qiladi.

Fotimaning turmushga chiqishini eshitib, tabriklagani kelganlar orasidagi (.....) Xonimni ham Fotimalar malhailasining guli deyish mumkin. Bu xonim Fotimaning jasoratli qarorini qutlagani va unga bu qarorda sobit qolmoqni tashviq qilgani kelgandi. Ikki kunlik huzur-halovat uchun fazilat va xaqiqat yo'lini tark etmasdan, yolg'iz qolib mashaqqatlarga duch kelsa ham sabr etishni maslaxat va nasihat qilgani kelgan bu ayol xush qarshllanishga arzigulik, yaxshi kutib olinishga munosibdir.

Qalbi xaqqa bog'langan, yomonllqdan yuz o'girgan insonlarda boshqlarga o'xshamagan, porloq bir vijdon bor. (...) Xonim fazilatsizlikni, fayzsizyashamoqqatashviqni, haqsizlikni, huquqsizlikni ko'rganda qo'l siltab, ko'z yumib ketmaydigan, iloji boricha chora topishga, tadbir qilishga kirishadigan, hech bo'lmaganda ich-ichdan iztirob chekadigan vijdon soxibasi edi. Ko'pchilik xato manzil tomon kim o'zarga shoshgan bir davrda ularni haq yo'lga yurishga undashni amr etgan bir vijdon sohibasi edi u. Fotymaning eshigida bir xonim turardi. Ko'rinishida sokinllkdan boshqa narsani ifoda etmagan, samimiyatdan boshqa narsa o'qilmagan chexrasidan qalbiga boqsangiz vulqonlar otashli, ummonlar kabi bezovta bir olamning aks etganini ko'rishingiz mumkin.

Eshik ochildi. Qirqqa yakranlashgan, o'rtadan baland, uzunga yaqin bo'yli, boshini sharf bilan yaxshllab o'ragan bir ayol ko'rindi. Hech qachon kelmagan, bir uzoq ko'shni tashrif buyurdi. Fotima har kuni bir necha mehmonlar kelishiga odatlanganligi va ularning kelish sababini bilgani uchun uyiga ilk bor mexmon bo'lib kelgan uzoq qo'shning tashrifidan xayron bo'lmadi, uni begonalardek qarshllamadi.

Mehmon xonimda xar kun keladiganlarda uchramagan bir xususiyat ko'zga tashlanib turardi. Harakatlarida, turishidayoq ro'parasidagi odamni hurmat bilan muomala qilishga majbur etadigan viqor va jiddiyat sezilardi. Bir qahva ichguncha qancha «zahmat chekkani»ni takrorlaydigan yoki ming turda g'iybat qiladiganlardan emasligi bilinib turardi. Ayol jimgina qaxva ichdi, tashakkur aytdi, Alloh ziyoda etsin, deya duo qildi. So'ng Fotimaning turmushga chiqish haqidagi qaroridan juda mamnunligini aytib, tabrikladi. Bu haqda suxbatlashish mumkin bo'lgan bironta mehmon kelishiga umid qilmagan Fotima shoshib qolganday bo'ldi. Mexmon xonim davom etdi:

«Faqat, qizim, insonlik sharafi xayrll qaror qabul qilishdagana emas, balki turli aziyatlar qarshiida qabul qilingan qarorda sabr bilan davom eta bilmoqdadir. Bu go'daklarga beradigan har bir luqma taoming, aytadigan har so'zing Alloh xuzurida zoe ketmasligini, qiymatll bo'lishini unutm. Ularga qiladigan xar yaxshiliging, Payg'ambaringga qilingan yaxshilik ekanini yodingda tut. Bilursanki, u zotham tug'ilmaslaridanoq otalaridan, olti yoshlarida onadan yetim qoldllar. Yetimlarning ko'z yoshiarini sening mehr-shafqating to'xtatsa, sendan baxtll odam yo'qdir. Ha, bu yo'ida ancha zaxmat va aziyat chekasan.

Sabr etsang, bu zaxmatlar ertaga rahmat bo'lib qarshingdan chiqadi. Peshona terini to'kib insonligini isbot etganni, Payg'ambari xurmatiga yetimlarga ko'z-quloq bo'lganni Alioh ko'z ko'rmagan ne'matlar bilan siylaydi. Ularga onalari yo'qligini «Fotima yaxshi ayol ekan», deyishlari uchun emas, Alioh rozi bo'lishi uchun sezdirmaslikka kirish».

Fotima qabul qilgan qarori uchun shu kunga qadar ilk marotaba qutlanayotganini tushundi. Uylariga ilk bor kelgan bu xonimning so'zlari riyodan yiroq, g'oyat samimiy edi. Ketayotganda, haligacha tanishib suhbatlashmaganidan xijolat bo'lib qo'lini o'parkan, xonimdan duo qilishinn so'radi, bu xil nasihatlarni kutganini bildirdi.

Ko'k yuzidagi bulutlarni shamol atrofga tarqatgann kabi insoniy vaznfasini ijro ztgach, vazmin qadamlar bilan uyiga yo'nalgan bu xonimning orqasidan yerdagi chang to'zonlarni ko'kka sovuradigan bir shamol turdi. Bir onda odam-odamni tanimaydigan holat vujudga keldi. U to'zonva qyun ichra sokinlik bilan odimlayotgani qo'zga tashlanib turardi. Bu manzara Fotimaga botilning kelib-ketishini, chang-to'zon kabi ekanini, faqat haq qudratli va boqiy bo'lib qolaverishini eslatdi.

* * *

Kim edi bu ayol? Ismini aytishni lozim topmagan, hatto aytmasliqdan ko'ngllida huzur tuygan bir ayol. Sababi nima edi? Uyaladigan ish qildimi yoki «nechun bunday qilding?» —deb so'rab ketadiganlardan biri ekanligi uchun shunday yo'l tutganmikan? Albatta, yo'q.

Agar: «Ajabo, bu xonim ushbu ishni Alioh rizoligi uchun qilganidan va faqat U bilishi yetarli ekaniga ishonganidan o'zini tanitishni istamagandir?»—deyilsa, javob savolning o'zida aks etgan bo'lardi.

Insonda bir dard bor. Amaliarini boshqalarga bildirish dardi. Bu dard ba'zan tarbiya va odob doirasidan chiqib ketadi. Inson bir yaxshilik qiladi. Faqat bu yaxshilik mukofotini Allohdan kutmasdan, boshqalarning boshlarini qotirib, kuloqlariga yetkazmaguncha rohat topmaydi. Kelajak nasliarga qanday yetkazishadi? Buning ham chorasini bor, yo'li oson. Darhol marmar lavhaga ko'rsatilgan yordam va o'zining ismini yozdiradi, Tamom. Kim nima deydi?

Ba'zan bironvga ertalab yaxshilik qilinib, kechqurun yuziga solinadi. Lekin bu jahonda bildirmasdan yaxshilik qilib, bu yaxshiligini yodida saqlab yurmaydiganlarning ham borligi aniq. Haqiqat shuki, Fotimaning mehmoni — har so'zi gavhardan ziyoda bu ayol dunyoning ismsiz janobiari orasidan o'rin olishga loyiqligini o'z harakatlari bilan isbot etgandi. Alloh undan rozi bo'lsin.

Uning mukofoti uni tanimagan, faqat ortidan bu yo'lda duo qilganlarning Alioh huzurida qabul bo'lingan niyozlaridir.

* * *

Odilbek bir necha xonadonga bosh urib, nihoyat muvaffaqiyatli javob oldi..Uning avval uylanganini, buning ustiga ikki yetimi borligini eshitganlar darhol rad etardilar. Odnlbek tul xotinlar balki bu turmushga rozi bo'lar deb o'ylar, biroq hech kimdan ijobiy javob ololmasdi. Nihoyat Fotima ismli bir qizning oilasi bu taklifni:

— Bir o'ylab ko'raylik... — deya qarshilashdi va bir haftadan keyin rozi bo'lishdi.

Xotini o'lganiga bir yil bo'ldi . Undan xotira bo'lib uch yoshli qizaloq va besh yashar o'g'il qoldi. Odila va Husayin. Bu bir-birvdan sevimli, bir-biridan go'zal va shirin, shu bilan birga bir-biridan tolesiz ikki go'dak uning ko'lida qoddi. Ne qilarini bilmaydi.

Xotining xasgaligi kuchaygan sayin, hayotdan umidi uzilarkan, go'daklarni avvalo

Allohga, qolaversa eriga omonat qoldirganini bir lahza bo'lsin yodidan chiqarmaydi. So'nggi kecha edi. Xasta qiynalib nafas olar, har nafas olganda tili zo'rg'a qimirlar, bir narsalar aytayotgandek bo'lardi. Odilbek uning ahvoli yomonlashganini sezishi bilan qulog'iga bir necha bor Alloh... Alloh dedi. U javob bermadi. Minnatdor ko'zlarini eridan olib, qo'llari bilan ishorat qildi.

Odila belanchakda yotar, Husayin uni kuldirib, o'ynardi. Xasta ayol eriga qaradi, so'ng ko'li o'ynayotgan bolalarni ko'rsatganday uzaldi. Faqat uzalgan qo'l havoda qolmadi, ko'rpa ustiga tushdi. Bu orada chukur nafas bilan Alloh kalimasi eshitildi. Ko'l boshqa qimirlamadi. Faqat hamma narsadan bexabar o'ynayotgan bolalarini ko'rsatganday oldinga uzanib qoldi. Balki bu xarakati bilan so'nggi hayotining g'unchalarini, kurtaklarni omonat qoldirayotganini yana bir bor bildirib, uylanadigan xotiniga bu go'daklarni ezdirmaslikni vasiyat qilmoqchi bo'lgandir.

Odilbek ko'zlarida qalqqan yoshlarni sassiz sidirarkan, bir necha soniya avval onasi bo'lgan bu yetimlarga iztirob va achinish bilan qaradi. Odila akasi tebratayogan belanchakda qulgidan to'xtamasdi...

Uning kulgisi yana qancha davom etadi? Buni tushunishga hali ojiz edi. Har qanday inson oilasidan o'limdan qattiq ta'sirlanadi, nihoyat bu taassurot kundan-kunga kamayadi. Biroq shunday payt keladiki, unga aloqador nimadir xotiralar cho'g'ini qo'zg'ab, o't oldirib yuboradi, ko'ngil iztirob alangasi ichra qoladi...

Odilbekning ahvoli, ta'siroti boshqacharoq kechdi. Uzoq vaqtlar ko'nglida Xayriyaning alohida bir joy band etib turganini his etdi. Bu uning oilasiga, xotiniga vafosidan edimi yoki undan yodgor qolgan ikki no'dakning kundan-kun onalarini qo'msashlariga, iziashiariga boqib, qon yig'lab, yarasi yangllanib, ko'ngli zirqirashidanmi? Odilbek uchun vafo hissidan ko'ra ikki norasidaning achchiq holl kuchiilik qilgandek edi, go'yo. Biroq uni vafosiz deyish insofsizlikdir. Tunlar onasizlik tufayli g'ariblikda qiynalgan yetimlarni kuchog'lga olib sevmuqning ta'rif etilish mumkin bo'lmagan bir xis paydo qillshini boshidan kechirganlar yaxshiroq bilsalar kerak. Aslida bular musibatda qolganmi? Quchoqlarida boshiari egik turgan, sevgalisi tark etgan bir oshiq, maxzunllgi og'ushida jim qolgan go'daklarmi aslida? Barchasining bag'ri yarim. Barchasi kuygan. Ko'ngillari yarali. Shu bilan birga xotinidan judo bo'lgach, bir-ikki yil o'tib uylanganlarning chexrasi ochilganini ko'rganlar ko'pdir. Bunga aksi o'laroq uyda ko'chada, maktabda doimo g'ussali, yig'lamoqqa tayyor yetimning qosh-ko'zi kulib turishi nodir hodisadir.

Ota ko'ngli bir ayol bilan to'llshi mumkin. Faqat bola ko'ngllni oladigan, ko'nglini to'ldiradigan ayol endi dunyoda yo'q. Ota sevgisi bir insonga bo'lgan sevgidan iborat, bolaning mehr-muhabbati esa faqat onaga bog'likdir. Ona yer yuzida bir donadir, yagonadir. Uning onasi o'lgach, uyga yangi bir ona keladi. Otaning aytishicha, bu onaning avvalgisidan kamchilik tarafi yo'q. Faqat bolaning fikricha, bu ona bilan avvalgi onani qiyoslash inson bilan uning soyasini tenglashtirishdek gap. Biri butun borlig'i bilan shafqat va marhamatdan iborat bo'lsa, boshqasi faqat moddiy va shakliy jixatdangina onaga o'xshaydi. Biri sevsa, ikkinchisi uradi, biri bag'riga bossa, o'zgasi ko'ksidan itaradi, Birinchisi — ona, ikkinchisi—o'gay ona.

Odilbek bolalarida onasizlik tuyg'ularini ko'rgan sayin, dardi ham ortib bordi. Ularni har oqshom, har tun kuchog'iga olarkan, ko'li ko'zyoshiardan nam bo'lardi. Ayniqsa, Husayin:

—Ota, onam kelmadiku, hall tuzalmadimi?—deb so'raganida dardi yanada kuchayadi Tun-kechalab qiynalsa ham ularga qarar, shafqatini, mexrini ayamas, kunduzlar qaynonasi, ya'ni xotining onasinikiga qoldirib, ishiga ketardi. Bir kun u ham bolalarga qarayolmaydigan darajada xastalandi va u yana uylanish majburiyatida ekanini xis eta boshiadi. Fotimaxonimga uylanish masalasi ham hal bo'lgunga qadar bolalariga bir o'gay

onakelishini tuzukroq o'ylab ham ko'rmagan ekan. Yoxud bolalari bilan ovora bo'lish, ularning holiga achinib, yaxshi niyat bilan harakat qilyash bunday o'y surishlardan chalg'itgandir. Endi bu kun tartibidagi ko'ndalang masala kun sayin ulkanlashar, barcha yo'liar bolalarga o'gay ona topish ma'nosida birlashardi. O'gay ona... Bu nomni bugungichalik haqiqiy ma'noda tushunmagan edi. Boshga tushmaguncha bilmas deidilar. Peshonadagi yara bilan devordagi kovakning qanday farqi bor? Odilbek necha bor xotini o'lib uylanganlarni eshitgan. Ammo o'sha uylanganlarning o'z bolalariga bugun anglaganidek, o'gay ona olib keltshni tushunmagandi. Hozir o'gay onani bir olov sifatida qabul qillardi: etimlarning ovqatini pishirish yoki isitish o'rniga yoqib yuboradigan olov. Yohud u bir shamol-go'daklarga orom berish o'rniga a ularni junjiktirib, yuz-kuzlarini chang-to'zon bilan to'ldirguchi shamol...

Bolalar boshiga shunday ona kelishi ehtimoli bor. Bunday ehtimol katta. Butun ixtiyor ko'ldan ketishi mumkin. Shu o'y Odilbekni egovlardir. Ona hasratida yuraklari dog'langan go'daklarga qarashi bilan o'zini ularga zulm farmonini imzolagan hakim o'rnida ko'rardi. Hamma o'gay insonlar ham bolalarga zulm qilishdan zavq olmasa kerak deb o'zini ovutishni istaydi. Mingtadan bitta bo'lsa ham yaxshisi uchrab, bolalarning chehrasi ochilib qolar deya umid qiladi. Oxiri: "Nega bekorchi hayol, behuda o'y suraman. Yaxshi o'gay ona mening bolalarimni kutib turibdimi?" — deb yana g'ussasi ortadi.

To'yga bir hafta qoldi. Chigal o'ylar qurshovida kun sayin Odilbekning umidi uzilib bordi. Uylanishni istaganiga pushaymon bo'ldi. To'yga tayyorgarlik ko'rilmagan, so'z bermagan bo'lsaydi, shu ko'yi bo'ydoq o'tishga rozi edi. Oh, qarshi tarafdin qaytish takllfi kelsaydi, to'y zararini to'lab, barcha aloqani to'xtatgan bo'lurdi. Aksiga olib, utarafdin bunday sado yo'q edi.

Kunlar shunday o'lar bilan o'tdi. Xotining bir yil avval vafot etgani sababi bilan cholg'uli-solg'uli to'y qilmoqchi emas. Faqat kelin kelgan oqshom do'stlari bilan bir taom yeb, o'tirish qilmoqchi — mavlud, masnaviy o'qitmoqchi. Qiz tarafga ham bu taklif ma'qul bo'ldi.

Bir kecha avval... Ertasiga kelin kelishi kerak. To'g'rirog'l, balki ochiqrog'ini aytish kerak bo'lsa, bolalarning hayotida onasizlik davri tugab, o'gay ona davri boshlanadi. Bu kecha to'yib-to'yib yaxshi ko'rib qoladigan kechasidir. Bozordan keltirgan bir xaltachani uzatarkan.

— Nima olib keldingiz menga, ota? — degan bolalariga ichi zirqirab qaradi. Endi bunday narsalarni faqat o'gay ona roziligi bilan keltirishini o'ylab ko'ngli buzildi. Go'yo ayrilmoq uchun xayrlashayotganday ularning gul yuzlaridan hidlab-hidlab o'pdi. Xaltachalarni ochdi. Pista, qandlar, o'yinchoqlar... qandlarni yedirdi. O'yinchoqlarni berdi.

— Qani, bolalarim bular bilan o'ynang, men namozimni o'qiyin! — dedi. Namozdan so'ng suv isitdi, yuvintirdi, sochlarini taradi, ust-boshini kiydirdi. Kechgacha ularni o'ynatdi, Uyqulari kelishi bilai uxlatdk. O'zi ham yonlariga auzaldi. Yetimlarini hidlab-hidlab ko'zlarini yumdi. Uxladi... Tun yarmida dahshat ichra uyg'ondn. Qaradi. Bolalari pish-pish uxlashmoqda. Ko'rgani tush ekaniga shukr etdi.

Tushida Husayin ochqoganmish, o'gay onasidan ovqat so'raganmish, u esa:

— Hozir ovqatlanadigan vaqt emas!.. — dermish va ovqat bermaganmish. Birozdan keyin bolatakror so'rasa:

— Zaqqum ye. Hammamiz ochmiz. Kutsang, o'lasanmi?! — deb ozor berarmish. Bu so'z Husayindan ziyod Odilbekka yomon ta'sir qilib:

— Xonim, bolaku bu, biroz ovqat bersangiz bo'lmaydimi desa:

— Uning tarbiyasi menga oid ekan, ishimni qiyinlashtirish ne hojat? Og'ziga ikki urish o'rniga ovqat tutish kerakmi? Bugun indamasang, ertaga boshimga chiqadi. Nimasida bola buning? Ko'rmaysanmi, har narsaga aqli yetadi deb Husayinga shunday bir g'azabli

qarash qilganmishki...

Odilbek bu tush ertaga haqiqatga aylanajagini o'ylab o'rtandi. Peshonasini silarkan ko'rkuvdan sovuq ter paydo bo'lganini sezdi. Bu terlar tush ta'siri va vijdon muxosabasiga oid edi.

Vu orada Odila uyqu aralash qo'liarini uzatganday bo'ldi:

— Ona, suv... — dedi. Odilbek turib, suv keltirdi. Lekin qizi yana yaxshigina uxlardi. Uyg'otmoqqa ko'zi qiymadi. Piyolani ko'l yetadigan joyga ko'ydi, uyg'onib, suv ichgisi kelishi mumkin. Bolalari yoniga uzaldi. Bir pas bolalarining nafas olishini tinglab yotdi, hatto Odilaning suv so'rashini kutdi va sekin-sekin uykuga ketganini bilmay qoldi.

Vomdodni o'qigach, yotmadi. Bolalarining uyg'onishini kutdi. Ovqatlarini hozirladi. Uyg'ongilari kelmasdi, Uyg'onmaslikka xaqlari bor, bunday rohat yana qachon nasib kim bilsin.. o'yladi Odilbek. Yana qutmoqchiydi... Qarindoshlari kelib qolishiari kerak. Nima bo'lganda ham to'y, bir yil orziqib kutilgan ona (!) uyga rohat, huzur keltirmoq uchun tashrif etadi.

* * *

Fotimaning uydan ayrilishi qiyin bo'ldi. To'i yaqinlashgani sayin iztirobi ham ortib bordi. Bu mahzunlik totuv turmush kechirish-kechirmaslik xavotiridan ko'proq ota-onadan alohida yashash, ulardan ajrash tuyg'usi edi.

Fotima o'ziga tasalli berish uchun harakat qildi. Har bo'y yetgan qizning boshida turmushga chiqishdan boz chora yo'qilgini o'yladi. Umrining oxirigacha ota uyida qololmasilgini bu o'yga uladi. Ikki yetimga onalik qilishini va bu bilan savob qozonishini xotiriga keltirdi. Ular bilan mashg'ul bo'lib vaqt qanday o'tganini bilmay qolishini, bu mutlaqo ayriliq bo'lmay, istagan paytda qizlik uyidagilarini ko'rib keta olishini tushunsada, bu maxzunlikka moneilk qilolmadi. Nihoyat to'y onasi bilan birga so'ng bor ovqatlanayotganini o'ylagach, taom tomog'idan o'tmadi. Ko'zlari yoshga to'ldi. Otasining qistashiga qaramasdan ovqat yeyolmasligini aytdi va yemadi. Shoshilinch yurishlar, kella-ketishlar, o'rinil-o'rinsiz baqirib-chaqirishlar va shunga o'xshash hodisalar bilan bir necha soat o'tdi. Bu soatlar Fotimaga uzunmidi yoki qisqa? Buni Fotima bilolmasdi. Faqat eshikka mashina kelishini kutib turgan bolalar taksi uzoqdan ko'rinishi bilan:

— Kelishmoqda... — deya baqirishib, u tomon yugurdi. Fotima ko'ngiida g'alati kechinmalar paydo bo'layotganini, tizzalari majolsizlanayotganini his qildi. Birozdan so'ng yoniga ikki ayol keldi. Bu orada tashqaridan, «Ovmin» ovozlari keldi. Qo'ilar duoga ochildi. Duolarni eshitmas, faqat ovmin deganlari qulog'iga chalinardi. So'ng yana jimlik. U ham qo'llarini ko'tardi. O'z rizoligi bilan shu turmushni tanlaganini ko'ngli tarjimoni bo'lgan tillari yengilgina qimirlab anglatar, ko'zlaridan oqqan injular upa-elikka ehtiyojsiz gul yuzidan sirg'alib ko'ksiga go'zal bir holda tomchilab tushardi:

— Rabbim, sabr ber. Xayrli oqibat ato qil. Yetimlarimga zulm etmoqdan, zolimlikdan, ularning haqqiga xiyonat qilmoqdan O'zingga sig'inurman. Poko Parvardigoro, nomus bilan yashamoqni, xayrli zuriyotlarni, bolalarim o'rtasida adolatga rioyat etmoqni nasib ayla, yo Robbil a'lamiyn! Sendan sihat-salamatlik, afiyat, xusni xulq tilayman, dinimga, ibodatimga loyiq kuch-quvvat so'rayman. Huzuringga uyaladigan holda bormoqdan O'zing asra, Habibing hurmati...

Bu orada tashqaridan duo so'ngiga yetganini bildirguvchi «Fotiha salovat!» degan ovozlari eshitildi va Fotimaning ko'illari ham yuzlariga surildi. Keyin holasining qizi ko'llaridan tutgancha, to'yga kelgan keksalarning, qarindoshlarining qo'liarini o'ptirdi. Pastki bog'chada ota-onasi, tog'asi, amakisi bir qator turishardi. Ular bilan xayrlashdi. Oldinda go'zal jildi va muqovali Qur'oni Karimni tutib ketayotgan ayol izidan yurib

yonidagi ayoliar bilan birga taksiga o'tirdi.

Fotima uchun yig'laganlar orasida bir chetdan unga mahzun-mahzun termulib qolgan Ismoil ham bor edi. Fotimaning qalbidagi g'alayonlar va g'ussasining hozirga darajasi haqida so'zlash xuquqi faqat bu holatni boshidan o'tkazgan, boshiga yopinchiq tashiab, ota uyi bilan xayrlashish alamini totgan kelinlardagina mavjuddir.

Fotimani bir hovliga tushirdilar. Yangi emas. Lekin xarob ham emas. Uch xonasi, bir zali, bog'i bor. Bog'cha qarovsiz. Hovli (uy va bog') to'y oldidan yig'ishtirilganiga qaramasdan, ko'p vaqtlardan beri ayol qo'li tegmagani bilinib turardi. Fotimaning ko'ngli zirqiradi. Xasta, zaif, holsiz bir yosh ayol ko'z oldiga keldi. U bolalariga qanday taomlar bergan, hovlini qanchalar orasta qilgan... Faqat xastaligidan bog' oyoq bosolmaydigan holga kelgan.

Aslida to'y deyish unchalik joiz bo'lmagan bu yig'inga kelgan qo'shnilar birpasdan so'ng tarqalishdi. Uyda faqat Odilbekning qarindoshlari — to'rt-besh ayol qoldi.

Birozdan so'ng eshikdan bir ayol va ikki bola kirdi. Fotima bu xotinni ikki marta ko'rganini esladi. Odilbekning holasi. Yonida qora qosh, qora ko'z, qirra burun, chiroyli, shirin ikki go'dak. Yanga liboslar kiydirilgan, sochlari taralgan. Agar ularga diqqat bilan boqqanlarida yuzlarida iztirob belgilarini ko'rmasalar, bu ularda iztirob yo'qligidan emas, balki noto'g'ri qarash, yaxshilab qaramaslikdandir. Odilbek ningholasi ularning qo'llarini tutib olgan. Fotimaning yoniga kelishdi. Muloyim, ammo ko'p vaqt dard chekkani bilinib turadigan ovozda:

— Xush kelibsiz, qizim—dedi.

— Xushvaqt bo'ling, hola! Ayol yonidagi bolalarga ishorat qildi:

— Mana, qizim, bolalaring. Avval enasi qaradi — katta onasidan keyin, kim kelsa shu, uning-buning qo'lida qoldi. Qo'g'irchoqday ko'ldan-ko'lgao'tib yurishdi bechora bolalar. Endi senga topshirdik. Omonat. Shunday omonatki, ko'ngiliari jannat eshigiga bog'langan, bir omonatki, boshidan bir tuk tushib, joni qiynalsa, hisobi katta. Bu gulg'unchalarni xoxla yayrat, xohia uz. Ixtiyor senda. O'zing bilasan.

Bularni shikasta ohangda so'zlayotgan xonim bir o'ziga bir Fotimaga hayron qarayotgan bolalar yoniga bordi:

— Qarang, bolalarim, onangiz keldi. Endi yaxshi bo'ladi. Qani, ko'llarini o'ping.

Husayin Fotimaning onasi ekanini yaxshi anglamadi, shu bilan birga tarbiya natijasi tufayli, odob yuzasidan uning qo'lini o'pdi. Chekinmoqchi bo'ldi. Ammo yangi ona uning qo'lini qo'yib yubormadi. Chap ko'lga olgach, dedi:

— Qani sen ham kelchi, Odila.

Odila holasiga qaradi. Fotima avvaiddan tayyorlab qo'ygan, rangli qog'ozlarga o'ralgan ikki xaltacha chiqardi. Birini Husayinga berdi. Keyingisidan beshlik, o'nli bir qancha mayda pullar chiqarib Husayinning hovuchini to'ldirdi So'ng:

— Endi Odilaning ko'nglini olamiz, unga ham beramiz, — dedi. Husayin Odilaning ko'lidan ushlab, sekin tortdi:

— Kel, singlim, senga ham beradilar, — dedi. Odila zo'rg'a yaqinlashdi. Guyo kulog'idan sudralgan uloqcha. Berganlarini olarkan, Fotima uni quchoqladi. Oldiga o'tqazdi. Odila turib, qochmoqchi bo'lardi. Fotima uni ko'yib yubormadi.

— Men sening onang emasmanmi? Nega mendan qochasan, qizim? Seni shunchalik o'zimniki, desamam, nega sen onam deb uchmaysan? Mana, keldim. Endi hech ketmayman. Qochsang xafa bo'laman, onang bo'lmay ko'yaman. Akang, mana, shu yerda. Kel, Husayin, kel, o'g'lim. Sen oldida o'tir, singling ham bag'rimda bo'lsin.

Husayin tortinib-uyalib keldi. Fotimaning bir tizzasiga o'tirdi. Yangi ona ikkovini ham bir-bir o'pib, bag'riga bosdi. Bolalar dimog'iga xushbo'y urildi. Bu hid bolalarga go'zal ta'sir etdi.

Boshqa ayollar aralashmasdan quzatib turishardi. Ikki yetimga kelar-kelmas hadyalar berib, o'pib, bag'riga bosgan ona bilan, tizzalarida o'tirgan ikki go'dak holati ularning ko'zlarini yoshladi.

Ikki ko'li bilan ikki go'dakni kuchgancha Fotima Odilbekning holasiga qayrilib qaradi:

— Hali so'zlaringizni tingladim. Juda to'g'ri va yaxshi gapirdingiz. Ishonchingiz komil bo'lsin, men ham bu uyga ularning dardiga chora bo'lish, bag'rimga bosib, qiyinchiliklarini ketkazish uchun keldim. Sabrim yetguncha tirishaman, o'z onasi bo'lish niyatidaman. Bolalarga mendan nima istagan, kutgan bo'lsangiz, ziyoda bajarishga kirishaman. Duo qiling. Alioh meni uyaltirmasin, — dedi. Bu so'zlar holani va boshqa ayollarni mamnun etdi. Hatgo ulardan biri yonidagi xotinga:

— Eshityapsizmi? — deb oyog'i bilan yengilgina turtib qo'ydi.

Bir soatlardan keyin Fotima bilan bolalar o'rtasida samimiy munosabatlar boshiandi deyish mumkin.

* * *

Oqshomga qadar turli o'ylar bilan o'zini yeb bitirgan Odilbek ohista odimlar bilan, istar-istamas uyga kelib, bolalarga ko'zi tushmasdan, g'alati axvolda qoldi. O'zini g'arib xis etdi. Endi bu uyda uni kulib, yugurib chiqadigan bolalar o'rniga tund holda qarshi oladigan bir xotin va undan qo'rqib biror burchakka bekinadigan bolalar mavjud. Mana, hozirdan bu o'rtada ko'rinishmaydi. Balki holasi xafa bo'lishmasin, xo'rlanmasin deya o'zinlikiga olib ketgandir. Ularning yo'qligi, bo'lsa ham ko'zlarida yosh to'la ekanligi bu uyni kanchalar fayzsiz, farog'atsiz qilib qo'ygan-a, yo Rabbiy...

Xayriya o'lmagan, bugun bir shifoxonadan tuzalib chiqqan bo'lsaydi, naqadar go'zal bo'lardi. Oh, naqadar deb o'yladi. So'ngra bu Alloh takdiriga qarshi, odobdan tashqari bir o'y (shayton vasvasasi)ekanini va musulmon bunday fikrlamasligini xotirlab, Alloh Taolodan afv tiladi. Bunday o'ylamoqdan ne foyda bor edi? Bo'lmaydigan o'ylar bilan boshini qotirguncha, haqiqatga aloqador bir narsa bilan mashg'ul bo'lish afzal emasmi? Masalan, o'gay ona ko'nglini qanday oladi, bolalarini uning zulmidan qanday qutqaradi, qanday yo'l topish mumkin? O'ylashi va chora topish kerak bo'lgan narsalar mana shular edi.

Bir sigaret tutatdi. Ilgari chekmasdi. So'nggi bir yil ichida shu zaqkumga yo'liqdi. Bir-ikki tortdi. Biroz keyinroq bir do'sti kelishi kerak edi. O'zining bu ahvolini unga biddirmaslik lozim. Zotan, tongdan oqshomga qadar o'ylashdan va kuygan ko'ngil bilan Alloxga duo etishdan boshqa hech ish qilmadi, bir luqma bo'lsin taom yemadi. Kechgacha ikki quti sigaretni bulg'ashga aslo haqqi bo'lmagan toza havoga pufladi. O'chini undan oldi. Sabr kosasini to'ldirayozgan iztirob uni o'z-o'ziga atrofini o'ragan pashshalar talovida ko'llari bog'langan, bechorahol, g'arib ahvolda ko'rsatdi. Bu orada holasi boqqa chiqdi. Uni ko'rib, yaqinlashdi:

— Xush kelibsan! Beadad shukrki, bu ish ham bitdi, dedi. Odilbek:

— Bolalar qani, hola? Nima qilishyapti?

— Ichkarida. Onalari bilan o'ynab ovunib o'tirishibdi.

Odilbek sarchib tushdi.

— Tushunolmadim?

— Onalari tizzasida o'ynab o'tirishibdi.

— Yo...

Bu hayrat nidosi Odilbekning og'ztdan chiqishi barobarida ko'zlari ham yoshlandi, g'alati bo'lib ketdi.

— Ha o'g'lim, ba'mani xonimga o'xshaydi. Kelar-kelmas go'daklarga hadyalar berdi,